

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika -matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

Fayziyev Muhridin Bahriddin o'g'lining

**“Universitet informatsion tizimida kurs ishi, referat monitorigini qo'llab-
quvvatlovchi modul yaratish”**

5130200-“Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi”**

Kafedra mudiri

_____ dots.T.B.Boltayev
« _____ » _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar _____ H.I.Eshonqulov
“ _____ ” _____ 2016 y.

Taqrizchi _____
“ _____ ” _____ 2016 y.

“Himoya qilishga ruxsat berildi”

Fakultet dekani _____ Sh.M.Mirzayev
“ _____ ” _____ 2016 y.

Buxoro-2016

MUNDARIJA

Kirish	4
I. Zamonaviy Web texnologiyalar va ular haqida ma'lumot	8
1.1. HTML. Javascript, Vbscriptlar va ular haqida tushuncha.	8
1.2. ASP.NET haqida tushuncha	25
1.3. SQL tiliva uning imkoniyatlari. Berilganlar bazasi boshqaruv tizimi (BBBT) asoslari. SQL tili.	31
II. Universitet axborot tizimida kurs ishi, referat monitoringini qo'llab-quvvatlovchi modul yaratish.	39
2.1. Universitetdagi mavjud tizim va unga bog'langan kurs ishi, referat monitoringini qo'llab-quvvatlovchi modul yaratish.....	39
2.2. Kurs ishi, referat monitoringini qo'llab-quvvatlovchi modulning foydalanish metodikasi	58
Xotima.....	65
Adabiyotlar.....	66

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida istiqlool yo'lidan ildamlab bormoqda. Mustaqillik tufayli jamiyatimiz hayotida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi respublika ta'lim tizimida muhim voqea hisoblanadi. Bu hujjatlarda Respublika ta'lim muassasalarida yuqori malakali, bilimdon kadrlar tayyorlash usul va yo'llari, bosqichlari aniq belgilab berilgan va ular ta'lim sohasida amalga oshiriladigan islohotlar dasturi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov aytganlaridek: «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak».

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim sharti xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni yaqin o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqiyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar mandaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

XXI asrning intellektual yoshlar asri, axborot texnologiyalari asri deb atalgani sababli, shu davr mobaynida axborotlar bilan ishlash va axborotlashtirish juda rivojlandi. Bunga sabab shundaki, kundalik turmushda, axborotlar, ularni qayta ishlash va uzatishning ahamiyati tobora ortib borishidadir. Bu esa o'z navbatida jamiyatning har bir a'zosidan axborotlashtirish va axborot texnologiyalari sirlarini, uning qoida va qonuniyatlarini mukammal bilishni taqozo etadi. Fan va texnologiyalarning rivojlanishi, taraqqiy etishi va o'zaro integratsiyalashuvi jadallashmoqda, shu bilan birga yangi innovatsion texnologiyalar yaratish hamda ishlab chiqarishning turli jabhalarida qo'llanishi har bir yoshni o'z mutaxassisligini mukammal egallashini taqazo etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish, ta'limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning 2001-yil Oliy Majlisning 5-sessiyasida so'zlagan nutqida axborot texnologiyalari va kompyuterlarni jamiyat hayotiga kishilarning turmush tarziga, maktab va oliy o'quv yurtlariga jadallik bilan olib kirish g'oyasi ilgari surilgan edi.

Kompyuterning ta'lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati beqiyos. U xalq ta'limi tizimini ma'muriy boshqarishdan tortib maktab faoliyatini alohida tashkil etish, boshqarish nazorat qilishgacha, o'quv predmetlarini o'rganishni tashkil qilishdan tortib, o'quvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etishgacha bo'lgan muammolarni qamrab oladi. Bu muammolarni hal qilish bo'yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, bizning Respublikada ham turli yo'nalishdagi tadqiqot ishlari o'tkazilmoqda.

Ta'lim sohasida kompyuterlashtirish, unga axborot texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilishda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, bu sohada yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Bu masalalar qatoriga umumiy o'rta ta'limda kompyuterli ta'lim metodologiyasining o'rnatilmaganligi, pedagogik dasturiy vositalari (PDV) ni yaratish prinsipi, vosita

bosqichlari va mexanizmining yetarlicha tadqiq qilinmaganligi; o'quv materialiga pedagogik dasturiy vositaga mo'ljallab ishlov berish, ma'lumotlar omboriga joylashtirish usullari, ulardan foydalanish tizimining ilmiy asoslanganligi, dars jarayonidagi bosqichlarni to'liq kompyuterlashtirish masalalasining majmuaviy o'rganilmaganligi kabilar kiradi. Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Yurtboshimiz I.A.Karimov "XXI asr axborot texnologiyalari asri" – deb ta'kidlaganlaridek, butun jahon taraqqiyoti tobora axborot texnologiyalari bilan tez suratda rivojlanib bormoqda. Xususan biz kabi yoshlarni zamon talabiga javob beruvchi mutaxassislar qilib tayyorlashga e'tibor katta.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi: Bu modul talabalarni berilgan topshiriq (kurs ishi, referat) yuzasidan hozir qaysi bosqichda ekanini, rejaga doir nima ishlarni bajarganini, bu ishlarni qay darajada bajarganini va qanday baholanganini bilish uchun qo'llaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: ASP.NET web dasturlash texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalangan holda modul yaratish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Malakaviy ish maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi. ASP.NET web dasturlash texnologiyasini imkoniyatlarini o'rganish, modul yaratishda ASP.NET texnologiyasidan foydalanib uning imkoniyatlarini ko'rsatish.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi: Bitiruv malakaviy ishimni qilish jarayonida juda ko'p ma'lumotlarni o'rganib oldim. Ya'ni dasturni tuzish jarayonida ASP.NET texnologiyasini, SQL tili, web dasturlash tillarini va Universitetda mavjud tizim bilan bog'langan dasturlar haqida ancha bilimlarga ega bo'ldim.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: HTML, Java script, ASP.NET texnologiyasi, SQL tili va bloklar.

**Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti:** Talabalar, o`qituvchilar va kafedra

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi: Modul yaratishda ASP.NET texnologiyasi va SQL tillarini qo`llash.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: Kurs ishi, referatlar monitoringini web texnologiyasida bajarish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: Talabalarning topshiriqlarni (kurs ishi, referatlarni) bajarish jarayonida qanday ishlashini tahlil qilish, talabaning qanday bilim darajaga ega ekanini bilish, uni baholashni ko`rsatib beradi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari: WEB arxitektura va SQL tili.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: WEB serverni dasturlashda ASP.NET texnologiyasidan va ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarini qayta ishlashda SQL tilidan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi 66 betdan iborat bo`lib, kirish, 2 ta bob, xotima, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I. Zamonaviy Web texnologiyalar va ular haqida ma'lumot

1.1. HTML. Javascript, Vbscriptlar va ular haqida tushuncha.

Dunyoda ko'plab kompyuter tarmoqlari (KT) ishlab turibdi. Bulardan ba'zilar bilan tanishamiz. 1957 yil ARPA (Advanced Research Projects Agency) tashkiloti tuzildi. 1960 - yillar oxirida DARPA (Defense Advanced Research Projects Agency), 1969 yilda (AQSHning Mudofaa ministrligi tomonidan tashkil qilingan eng eski Ktlari hisoblanadi) ARPANet (Advanced Research Projects Agency Network) tajriba tarmog'ini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Ilk bor TARMOQ 1972 yilda namoyish etildi. U 40 ta kompyuterdan iborat bo'lib, asosiy tuzilish prinsipi TARMOQdagi barcha kompyuterlarning teng xuquqli bo'lishi edi.

1983 yilda - Internet tashkil etildi. Internet-axborotlar bilan mustaqil almashish imkonini yaratdi. Internet (International Network – xalqaro kompyuter TARMOQ) butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog'idir. 1990 yillar o'rtalarida Internet biznes-ishlovlari bilan ishlash uchun ko'llanila boshladi. Biroq, bu borada turli muammolar mavjud edi. Internetning statistik ma'lumotlari quyidagicha:

1981 y.- Internet ga 213 ta kompyuter ulangan;

1983 y.- Internet ga 562 ta kompyuter ulangan;

1986 y.- 5089 ta kompyuter ulangan;

1992 y.- 727000 ta kompyuter ulangan;

1995 y.- 20-40 million kompyuter birlashdi.

Hozirgi kunda Internet dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida 100 millionlab abonentlarga ega. Har oyda tarmoq miqdori 7-10%ga ortib bormoqda. Internet dunyodagi turli xil ma'lumotlarga oid axborot tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqani amalga oshiruvchi yadroni tashkil qiladi.

Internet qachonlardir faqat tadqiqot va o'quv guruhlarigagina xizmat qilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, u ishlab chiqarish doiralari orasida keng tarqalmoqda. Kompaniyalarni Internet tarmog'ining tezkorligi, arzon, keng qamrovdagi aloqa, hamkorlik ishlaridagi qulaylik, hammaning ishlashi uchun imkon beruvchi dastur hamda ma'lumotlarning noyob bazasi ekanligi o'ziga tortmoqda. Arzon xizmat narxi evaziga foydalanuvchilar AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqa ko'pgina Evropa mamlakatlarining tijorat yoki notijorat axborot xizmatlariga yo'l topadilar. Internet ning erkin kiriladigan arxividan insoniyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladigan axborotlarni, yangi ilmiy yangiliklardan tortib, to ertangi kungi ob-havo ma'lumotigacha bilib olish mumkin.

HTML da yozilgan Web sahifa odatda brauzer deb nomlanuvchi maxsus dastur yordamida quriladi. Bu so'zning o'zbekchaga to'g'ridan – to'g'ri tarjimasi «sharxlovchi dastur» manosini beradi. Brauzerning asosiy vazifasi foydalanuvchi talabiga muvofiq manzilni internetdan topish va qiyinchiliksiz uni tasvirlashdir. Oldiniga brauzer HTML tilida yozilgan «instruksiyani» tahlil qiladi va bu instruksiya yordamida Web sahifada mavjud bo'lgan axborotni tasvirlaydi.

Hozirgi kunda eng ko'p ishlatiladigan 2 ta Web brauzer mavjud bo'lib Web sahifa tayorlovchilar bu brauzerlarning xususiyatlarini e'tiborga olishlari kerak. Bular “Netscape Navigator” va “Microsoft Internet Explorer” (IE) brauzerlaridir. Aslida brauzerlar juda ko'p, lekin ular dunyoda ishlatilayotgan brauzerlarning bor - yo'g'i 1% ni tashkil qiladi. Qolgan 75% ni IE, 24% ni esa “Netscape Navigator” egallaydi. Demak shunday ekan ko'pchilik hollarda shu 2 ta brauzer haqida so'z yuritiladi.

Keling endi brauzerlar tarixiga nazar tashlaylik. 1989-yilda SHveysariyada CERN (The European Laboratoru for Practikle physics) olimlari tomonidan WWW tizimiga asos solingandan keyin uning axborot manbalarini ochib ko'rish muammosi paydo bo'ldi.

Bu muammoni hal qiluvchi dastlabki dasturlardan biri bu *Lynx* tipidagi satrli brauzerdir. SHunday qilib dastlabki satrli brauzerlar paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan brauzerlardan faqat matnlarni emas, balki ovoz, grafika va tasvirlarni tasvirlash ham talab qilindi. Grafik ma'lumotlarni matnli ma'lumotlar kabi ko'rish masalasi birinchi bo'lib *Mosaic* brauzeri tomonidan amalga oshirilgan .

Mosaic brauzeri *UNIX*, *PC* va *Macintosh* platformalarida ishlashga mo'ljallangan bo'lib bepul brauzerdir. Keyinchalik *Mosaic* va *Silicon Graphics* asoschilari birlashib hozirgi kunda etakchi brauzerlardan bo'lgan *Netscape* brauzeriga asos soldilar

Gipermurojaat butunjahon o'rgimchak to'ridan hujjatning URL deb nomlanuvchi manzilini qidirishda ishlatiladi. Biz bilamizki Web sahifaning asosiy mohiyati axborotni tasvirlash va uni har bir foydalanuvchi uchun ochib berishdir. Bunda bir qancha funksional cheklanishlar mavjud, ya'ni biz oldindan Web sahifani ko'ruvchining kompyuteri qanday, monitorining imkoniyati qanday va ko'rish oynasining qanday o'lchamda o'rnatilganligini bilmaymiz. Biz hattoki foydalanuvchining qanday operatsion muhitda ishlayotganini ham bilmaymiz. Web sahifa esa INTEL mashinada ham Makintoshda ham bir xil ko'rinishda bo'lishi kerak. Foydalanuvchi o'z operatsion muhitida qanday yozuv shriftlar o'rnatganligi yoki uning videokartasi qancha rangni ko'tara olishi ham ma'lum emas. Yuqoridagi ma'lumotlarning yo'qligi yoki yetarli emasligi umumaxborot almashish tilining paydo bo'lishiga to'siq bo'lishi kerak edi, lekin bunday bo'lmadi.

Gap shundaki 1986- yili xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan qog'ozdagi hujjatni ekranda tasvirlash imkonini beruvchi hamma variantlarni e'tiborga olgan SGML (Standart Generalired Markup Language) tili yaratildi. Hamma imkoniyatlarni e'tiborga olgan kuchli sistema ishlab chiqildi.

Web sahifa uchun bu yaxshi yo‘l deb hisoblangan edi. Lekin bu til qonun qoidalari izohi yuzlab sahifalarni egalladi. Bunday til asosida yaratilgan sahifani tasvirlovchi dasturni ishlab chiqish uchun juda ko‘p vaqt ketgan bo‘lardi, shuning uchun Internet ehtiyoji uchun SGML tilining malum bir qismi tanlab olindi va HTML (Hyper Text Markup Language) deb nomlandi. HTML tilida yozilgan Web sahifa faylida axborotning qanday tasvirlanishi haqidagi yo‘l- yo‘riqlar ketma – ket joylashgan bo‘ladi. Bu fayl oddiy matnli fayl bo‘lib uni maxsus brauzer datsturlarsiz o‘qish qiyin. Grafik rasmlarni esa umuman ko‘rib bo‘lmaydi chunki uning o‘rnida brauzer dasturga biror rasm kerakligini ko‘rsatuvchi TEG turadi. Agar biz o‘z Web sahifamizni yaratmoqchi bo‘lsak, albatta HTML tilini yaxshi bilishimiz kerak bo‘ladi. HTML da yozilgan Web sahifa odatda brauzer deb nomlanuvchi maxsus dastur yordamida quriladi. Bu so‘zning o‘zbekchaga to‘g‘ridan – to‘g‘ri tarjiması «sharhlovchi dastur» ma’nosini beradi. Brauzerning asosiy vazifasi foydalanuvchi talabiga muvofiq manzilni internetdan topish va qiyinchiliksiz uni tasvirlashdir. Oldiniga brauzer HTML tilida yozilgan «instruksiyani» tahlil qiladi va bu instruksiya yordamida Web sahifada mavjud bo‘lgan axborotni tasvirlaydi.

Hozirgi kunda eng ko‘p ishlatiladigan 2 ta Web brauzer mavjud bo‘lib Web sahifa tayorlovchilar bu brauzerlarning xususiyatlarini e’tiborga olishlari kerak. Bular “*Netscape Navigator*” va “*Microsoft Internet Explorer*” (IE) brauzerlaridir. Aslida brauzerlar juda ko‘p, lekin ular dunyoda ishlatilayotgan brauzerlarning bor - yo‘g‘i 1% ni tashkil qiladi. Qolgan 75% ni IE, 24% ni esa “*Netscape Navigator*” egallaydi. Demak shunday ekan ko‘pchilik hollarda shu 2 ta brauzer haqida so‘z yuritiladi.

Keling endi brauzerlar tarixiga nazar tashlaylik. 1989-yilda Shvetsariyada CERN (The European Laboratory for Particle physics) olimlari tomonidan WWW tizimiga asos solingandan keyin uning axborot manbalarini ochib ko‘rish muammosi paydo bo‘ldi.

Bu muammoni hal qiluvchi dastlabki dasturlardan biri bu *Linux* tipidagi satrli brauzerdir. Shunday qilib dastlabki satrli brauzerlar paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan brauzerlardan faqat matnlarni emas, balki ovoz, grafika va tasvirlarni tasvirlash ham talab qilindi. Grafik ma'lumotlarni matnli ma'lumotlar kabi ko'rish masalasi birinchi bo'lib *Mosaic* brauzeri tomonidan amalga oshirilgan .

Mosaic brauzeri *UNIX*, *PC* va *Macintosh* platformalarida ishlashga mo'ljallangan bo'lib bepul brauzerdir. Keyinchalik *Mosaic* va *Silicon Graphics* asoschilari birlashib hozirgi kunda yetakchi brauzerlardan bo'lgan *Netscape* brauzeriga soldilar

Netscape Communicator Brauzer eng mashhur va ko'p ishlatiladigan Web brauzerlardan biridir. *Netscape* kompaniyasi foydalanuvchi uchun juda sodda va qulay bo'lgan ushbu dasturni bepul tarqatib Internet va WWW olamida inqilobqildi. Yillar davomida bu dastur Internet muhitida aloqa vositalarini o'zida to'liq mujassam qildi. Bu dasturga elektron pochta va yangiliklarni o'qish vositalari qo'shildi. Bularning hammasi birgalikda *Netscape Communicator* deb nom oldi.

Agar siz ushbu brauzerdan foydalanmoqchi bo'lsangiz u holda <http://home.netscape.com> sahifaga kirib dasturni kompyuteringizga o'rnatishingiz mumkin. *Netscape* ochiq arxitekturaga ega, ya'ni u *Java* va *JavaScript* tillarida yozilgan dasturlarni tushinadi. *Netscapening* yuqoridagi imkoniyatlari va uning ixtiyoriy platformalar (*Windows*, *Macintosh*, *OS/2* va *UNIX*ning barcha versiyalari) bilan birga ishlay olishi uning mashhurligini yanada oshiradi.

Internetning eng ma'lum va keng tarqalgan qismi bu WWW (World Wide Web) deb nomlanuvchi to'rdir. Bu to'r Web saytlar va alohida Web sahifalardan tashkil topgan. Web sahifalar esa HTML tili yordamida yaratiladi.

HTML tilidan foydalanish uchun dasturchi mutaxassis bo'lish shart emas, chunki bu til juda oddiy va har kim undan foydalanishi mumkin. HTML da ishlash

uchun oddiy kompyuter foydalanuvchisi bo'lish va internetda ishlash bo'yicha ozgina malakasi bo'lsa etarli. HTML tili yordamida har kim o'zining shaxsiy Web sahifasini yoki butun boshli bir Web saytini yaratish orqali o'zini butun dunyo axborot fazosida his qilishi mumkin. Albatta faqat HTML ni bilish interaktiv savdo saytlarini yaratish uchun etarli emas. Bunday jiddiy maqsadlar uchun dasturlash bo'yicha yaxshi bilim va internetning har xil texnologiyalarini bilish talab qilinadi.

Ammo HTML ning qulayligi shundaki bu sodda instrument orqali zarur axborot Web saytlarini yaratish mumkin. HTML (jihozlari) tarmoq foydalanuvchilari uchun 5-10% ni inobatga olmaganda hamma imkoniyatlarga ega. Agarda o'zingizning saytingizda biror maxsus texnologiyalarni qo'llash zururati tug'ilsa, u holda yana boshqa adabiyotlarni o'rganish lozim bo'ladi. Yangi tarmoq dasturini o'rganishdan oldin esa HTML ning imkoniyatlarini qo'llashni o'rganish lozim. Ushbu qo'llanmadan biz bu imkoniyatlar haqida deyarli hamma narsani bilib olamiz.

HTML boshqa zamonaviy tarmoq dasturlari texnologiyalariga nisbatan sodda bo'lsada, internet – butunjahon to'ri shu til (HTML) yordamida yaratilgan bir qancha xususiy va korporativ saytlarning majmuasidir. Internet texnologiyasi va shu bilan birga HTML tili ham kompyuter industriyasining rivojlanishiga bo'lgan bir yordam bo'ldi.

Internet - bu cheksiz imkoniyatdir, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun saytlarni yaratish bilan bog'liq uslublarni o'rganish o'rinlidir. Yuqorida HTML tili butun jahon to'ri uchun asos va baza ekanini aytib o'tgan edik.

HTML ning qulayligi shundaki bu sodda instrument orqali zarur axborot Web saytlarini yaratish mumkin. HTML (jihozlari) tarmoq foydalanuvchilari uchun 5-10% ni inobatga olmaganda hamma imkoniyatlarga ega. Agarda o'zingizning saytingizda biror maxsus texnologiyalarni qo'llash zururati tug'ilsa, u holda yana boshqa adabiyotlarni o'rganish lozim bo'ladi. Yangi tarmoq dasturini

o'rganishdan oldin esa HTML ning imkoniyatlarini qo'llashni o'rganish lozim. Ushbu qo'llanmadan biz bu imkoniyatlar haqida deyarli hamma narsani bilib olamiz.

HTML boshqa zamonaviy tarmoq dasturlari texnologiyalariga nisbatan sodda bo'lsada, internet – butunjahon to'ri shu til (HTML) yordamida yaratilgan bir qancha xususiy va korporativ saytlarning majmuasidir. Internet texnologiyasi va shu bilan birga HTML tili ham kompyuter industriyasining rivojlanishiga bo'lgan bir yordam bo'ldi.

Internet - bu cheksiz imkoniyatdir, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun saytlarni yaratish bilan bog'liq uslublarni o'rganish o'rinlidir. Yuqorida HTML tili butun jahon to'ri uchun asos va baza ekanini aytib o'tgan edik.

HTML ning qulayligi shundaki bu sodda instrument orqali zarur axborot Web saytlarini yaratish mumkin. HTML (jihozlari) tarmoq foydalanuvchilari uchun 5-10% ni inobatga olmaganda hamma imkoniyatlarga ega. Agarda o'zingizning saytingizda biror maxsus texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'ilsa, u holda yana boshqa adabiyotlarni o'rganish lozim bo'ladi. Yangi tarmoq dasturini o'rganishdan oldin esa HTML ning imkoniyatlarini qo'llashni o'rganish lozim. Ushbu qo'llanmadan biz bu imkoniyatlar haqida deyarli hamma narsani bilib olamiz.

HTML boshqa zamonaviy tarmoq dasturlari texnologiyalariga nisbatan sodda bo'lsada, internet – butunjahon to'ri shu til (HTML) yordamida yaratilgan bir qancha xususiy va korporativ saytlarning majmuasidir. Internet texnologiyasi va shu bilan birga HTML tili ham kompyuter industriyasining rivojlanishiga bo'lgan bir yordam bo'ldi.

Internet - bu cheksiz imkoniyatdir, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun saytlarni yaratish bilan bog'liq uslublarni o'rganish o'rinlidir. Yuqorida HTML tili butun jahon to'ri uchun asos va baza ekanini aytib o'tgan edik.

HTML ning konstruksiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga ta'lluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa `<html>` tegi bilan boshlanib `</html>` tegi bilan yopilishi kerak. E'tibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «`<- -`» va «`<- ->`» belgilar orsiga yoziladi.

Masalan:

`<-- Bu izoh -->`

Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi ma'lumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi `<head>` va yopiluvchi `</head>` teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa `<body>` va `</body>` teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo'llanilayotgan HTML standartlari haqida ma'lumot yoziladi. Har qanday Web sahifaning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Misol:

`<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01//EN ">`

`<html>`

`<head>`

`<title>`

Hujjat sarlavhasi

</title>


</head>

<body>

Asosiy qism

</body>

</html>



1.1.1 – chizma.

Web sahifaning asosiy qismi *<body>* va *</body>* teglari orasida joylashadi. Bu oddiy matn bo'lishi mumkin. Brauzer bu matnni to'g'ridan-to'g'ri interpretatsiya qilib ekranda tasvirlaydi. Bizga dastlabki Web sahifamizni yaratish uchun oddiy «Bloknot» matn muharriri kifoya. Quyida ko'rsatilgan misolni matn muharririda yozib, uni xotiraga yozishda kengaytmasini html yoki htm deb kiritishimiz kerak. JavaScript ga kirish .**Java Script**- bu Web-sahifalarni yanada interaktiv va funksional qilish imkonini beruvchi ssenariylar tayyorlovchi tildir. Web-sahifalarni kuzatgan bo'lsangiz har bir sahifada biror matn, bir nechta rasmlar, vaqtni ko'rsatib turuvchi soat yoki brauzerning holatlar satrida yuguruvchi matnni ko'rishingiz mumkin. Yoki biror bir to'ldirilishi kerak bo'lgan forma bo'lishi

mumkin. Agar anketaning biror bir qismini to'ldirishni unutib qoldirsangiz xatolik haqida xabar paydo bo'ladi. Ayrim bir sahifalarda ekran bo'ylab harakat qiluvchi rasm yoki matnni uchratishingiz mumkin.

Shu kabi harakatlarni **Java Scriptda** kuzatishingiz mumkin, shunga o'xshash effektlarni esa ushbu tilni biluvchi ixtiyoriy kishi yaratishi mumkin.

Java Script ni qo'llab-quvvatlovchi brauzer Netscape2.0 , bo'lgan.

Java Script 1.5 va JScript5.5 Web-saxifangizning ko'rinishi va uning funksiyasini boshqarish imkonini beruvchi ssenariylar yozish tillaridir. Java Script nihujjatning ob'ekli modeli (Document Object Model- DOM) va stillarning kaskadli jadvali (Cascading Style Sheets -CSS) kabi yangi texnologiyalar bilan birgalikda qo'llash bilan web-sahifalaringizdagi barcha hodisalarni nazorat qilishingiz mumkin. Java Script va ob'ekli modeldan foydalanib, sichqonchaning bosilishi va klaviaturadan ma'lumotning kiritilishiga ta'sir qiluvchi sahifalar yaratish mumkin. Kaskadli stillar jadvali yordamida sahifadagi matnlarni ko'rsatish va berkitish, brauzer oynasi o'lchamlarini boshqarish va shu kabilarni bajarish mumkin.

Ushbu texnologiyalarni qo'llash bilan siz nafaqat Web-sahifa yaratasiz balki boshqa kompyuter dasturlari kabi harakat qiluvchi foydalanuvchi uchun muhit yaratasiz.

Ssenariya va dastur orasidagi farq nima?

Ssenariya (script) – bu buyruqlar ketma-ketligi (ayrim hollarda hattoki dastur) bo'lib, boshqa dastur tomonidan qayta ishlanadi va interpretatsiya qilinadi. Bu esa ssenariy yozish uchun matn redaktori yetarli ekanligini anglatadi, dastur yaratish uchun esa boshqa bir dastur (hech bo'lmaganda kompilyator) talab qilinadi. Boshqa so'z bilan aytganda ssenariy C va C++ kabi murakkab tarkibli tillarda yaratiluvchi dasturlardan ko'ra oson va tez yoziladi.

Biroq ssenariy bajarilishi uchun kompilyatsiya qilingan dasturning bajarilishidan ko'ra ko'p vaqt talab qilinadi. Chunki ssenariyning har bir buyrug'i protsessor ostida emas, balki boshqa dastur yordamida qayta ishlanadi. Ushbu kamchilik ssenariyni yaratish uchun bepul matn redaktorining yetarliligi va ayni paytda C++ tili uchun kompilyatorning bir necha yuz dollar turishi bilan izohlanadi.

Java Script ssenariysi yozish uchun instrumentlar

Oddiy matn redaktori

Oddiy matn redaktorini (masalan Windows Notepad) tanlash va unga kodni yozish oson bo'lsa kerak. Balki bu Java Script da ssenariy yozishning eng oson yo'li bo'lmasligi mumkin, biroq unda quyidagi ishonchli afzalliklar mavjud:

- Bepulligi
- Murakkab dasturni o'rganish talab qilinmaydi
- dasturiy ta'minot komplekti emas Java Script o'rganiladi

Visual tahrirlash vositalaridan foydalanish

Java Script ssenariylarini yozishda visual tahrirlash vositalari sifatida odatda HTML redaktorlaridan foydalaniladi. Bu turdagi vositalarga Microsoft Front Page, Macromedia Dreamweaver va Adobe GoLive larni kiritish mumkin.

Bunda ko'pincha Java Script kodining qo'lda kiritilishi va tekshirilishi talab qilinmaydi va bu dastlab juda ahamiyatli bo'lib tuyulishi mumkin. Biroq ishni yengillashtirish bilan ixchamlikni yo'qotish mumkin.

Biroq visual tahrirlash vositalarining ham bir nechta afzalliklari ham mavjud:


Tezlik-qo'lda terilgandan ko'ra natijaga tezroq erishiladi;

Samaradorlik- visual tahrirlash vositalari yordamida ishlaydigan ssenariyni olish mumkin;


Maxsus funksiyalar- masalan rang bilan belgilash kodlarni o'qish imkonini osonlashtiradi.

Brauzerning sungi versiyasi

Siz Java Scriptning zamonaviy versiyasini o'rganar ekansiz uning barcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun brauzerlarning eng so'ngi versiyasiga ega bo'lishingiz zarur. Minimum Netscape Navigator 4.0 va Microsoft Internet Explorer 5.5 brauzerlari o'rnatilgan bo'lishi kerak.



1.1.2 – chizma. Microsoft Internet Explorer 5.5



1.1.3 – chizma. Netscape Navigator 6

Boshqa instrumentlar

Java Script bilan ishni osonlashtirish uchun HTML sahifa shablonlaridan foydalanish va shaxsiy ssenariylar kutubxonasini yaratish kerak.

HTML shablon

<html>

<head>

<title>Html sahifa shablони</title>

<script language="javascript">

<!--

// - - >


</script>

</head>

<body>

</body>

</html>



1.1.4 – chizma. Windows Notepad redaktori yordamida tayyorlangan HTML shablon.

Java Script da informatsiyaning har bir bo'lagi qiymat (value) misolida ko'riladi. Informatsiya har xil bo'lgani kabi qiymatlarning ham turli kategoriyalari mavjuddir. Java Script da oddiy ma'lumotlar turlari asosiy turlar (primitive types) deb nomlanadi.

3 ta asosiy ma'lumotlar turi mavjud:

satr (string) ; son (number); mantiqiy (boolean).

Satrlar

Satr turdagi ma'lumotlar eng ko'p tarqalgan bo'lsa kerak. Satr – harflar, sonlar va tinish belgilarni o'z ichiga oluvchi belgilar ketma-ketligidir. Java Script da satrlar ko'pincha matnlar ifoda qilish uchun ishlatiladi.:

Assalomu alaykum, xush kelibsiz!

Siz kim?

Java Script ssenariysidagi satrlar apostrof yoki qo'shtirnoqqa olinadi, masalan:

“Assalomu alaykum!”

Ikkita turning ishlatilishining sababi shundaki, qo'shtirnoq ichida apostrofli satr ishlatish va aksincha mumkin. Masalan:

“Mening og'irligim 60 kg”

“”Siz kimsiz?”- deb hayron bo'ldi u’

Son

Java Script 2 ta turdagi sonlarni qabul qiladi: butun (integer) va qo'zg'aluvchi nuqtali son (floating-point number).

Butun sonlar. Butun sonlar o'zida musbat masalan, 1, 2, 3 va manfiy -1, -2, -3 va sonlarni va 0 ni namoyon kiladi.

Qo'zgaluvchi vergulli sonlar. Kuzgaluvchi vergulli sonlar

Katta va kichik sonlar

Java Script da ishlatiladigan sonlar juda ham katta yoki juda ham kichik bo'lishi mumkin. Eng katta son sifatida 10^{308} va eng kichik son sifatida 10^{-308} qiymat qaraladi.

Mantikiy ifodalar

Mantiqiy ifodalar satr va sonlardan faqat 2 ta qiymat qabul qilishi bilan farqlanadi: true (rost) va false (yolg'on).

Alohida turdagi ma'lumotlar: sonlar, noaniq va aniqlanmaydigan ifodalar

Ko'rib chiqilgan ma'lumotlar turidan boshqa bir nechta turlar mavjud bo'lib quyidagi sonli qiymatlarning turlari keltiriladi:

- Musbat cheksizlik
- Manfiy cheksizlik
- Musbat va manfiy nol
- Mavjud bo'lmagan son (not a number -NaN)

Yana 2 ta maxsus ma'lumotlar turi mavjud:

- Noaniq (Null)
- Aniqlanmaydigan (Undefined)

Dastlab keltirilgan 4 ta tur haqida gapiradigan bo'lsak, siz ular bilan ishlashingizga to'g'ri kelmaydi (albatta siz dasturingizda cheksiz son dan foydalanmaysiz). Mavjud bo'lmagan son deganda ma'nosiz matematik operatsiyalar natijasi tushuniladi (masalan, nolga bo'lish). Cheksiz qiymat deganda 10^{308} dan katta son tushuniladi.

Noaniq turdagi ma'lumot faqat bitta nol qiymatni olishi mumkin.

O'zgaruvchilar nafaqat Java Script tilida balki barcha dasturlash tillarida muhim ahamiyatga egadir. Ular yordamida barcha turdagi ma'lumotlarni boshqarish mumkin.

O'zgaruvchi- Java Script ssenariysi bajarilayotgan paytda ma'lum turdagi ma'lumotlarni saqlovchi kompyuter xotirasining nomlangan katakchasi hisoblanadi. Bu ta'rif biroz murakkab tuyulishi mumkin, lekin o'zgaruvchilardan foydalanish judayam osondir.

Java script da o'zgaruvchilar Uzgaruvchi yaratish

Java Script tilida o'zgaruvchi yaratish juda ham osondir. Yana o'sha HTML shabloniga murojaat qilamiz.

```
<html>

<head>

<title>Oddiy sahifa</title>

<script language="JavaScript">

</script>

</head>

<body>

</body>

</html>
```

Dastlab o'zgaruvchini yaratish kerak. Buni 2 yo'l bilan oldindan va zarur paytda e'lon qilishorqali yaratish mumkin. Dastlab oldindan e'lon qilinadigan turni

ko'rib chiqamiz. Ushbu bo'lim oxirida «zarur paytdagi» o'zgaruvchilarning yaratilishini ko'rib chiqamiz.

Misol: Java Script tilida o'zgaruvchini e'loni qilish (yaratish) uchun var operator iva undan so'ng uzgaruvchi nomi ko'rsatiladi. Ushbu misolda msg nomli o'zgaruvchi e'lon qilingan:

```
<html>

<head>

<title>Oddiy sahifa</title>

<script language="JavaScript">

var msg;

</script>

</head>

<body>

</body>

</html>
```

LANGUAGE parametri qo'llaniluvchi ssenariylar tilini yuklaydi. JavaScript tili bilan bog'liq holdauning ifodasini yuklash shart emas, chunki bu tilni brauzerlar o'z-o'zidan qo'llaydi. VBScript ssenariylari tili uchun bu parametr ifodasini «VBScript» satri ko'rinishida yuklash talab etiladi.

Sharhni yopuvchi teg --> oldidagi (//) simvollari JavaScript sharhining operatoridir. U interpretator to'g'ri ishlashi uchun zarur.

Hujjat uning istalgan yerida joylashgan bir nechta <SCRIPT> tegidan iborat bo'lishi mumkin. Hujjatning qismlari brauzer darchasida aksetishiga qarab, Java

Script interpretatori bu teglarning hammasiga birin-ketin ishlov beradi. Shu bois hujjat oxirida joylashgan ssenariyda belgilangan o'zgaruvchiga ishora hujjat boshidagi ssenariyning shunday o'zgaruvchisiga murojaat etilganida interpretator xatoga yo'l qo'yishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun global funksiyalar va o'zgaruvchilarga ega ssenariylarni hujjatning <HEAD> bo'limida joylashtirish tavsiya etiladi. Bu holda interpretator barcha belgilarga hujjatni yuklash jarayonining boshida ishlov beradi va hujjat brauzer darchasida aks etgan lahzadan boshlab xotirada saqlaydi.

1.2.ASP.NET haqida tushuncha

ASP.NET da fayllarni uzatish.

File Result sinfi mijozga fayllarni uzatadi. Ammo bu sinf abstraktli, aslida bizlar merosxo'rlar bilan ishlaymiz:

- **FileContentResult:** fayldan o'qilgan, baytlar massivini mijozga uzatadi.
- **File Path Result:** faylni to'g'ridan to'g'ri serverdan uzatadi.
- **File StreamResult:** bu sinf oqimni yaratadi – System.IO.Stream ob'yekti orqali faylni o'qib chiqadi va faylni mijozga uzatadi.

Ko'rsatilgan uchta usulda File metodi ishlatiladi, qaysisi File Result ob'yektini qaytaradi. Faqat tanlangan usulga qarab, bu metodning tegishli qayta yuklangan versiyasi ishlatiladi.

Fayl tizimidan faylni uzatish uchun (File Path Result ob'yektni ishlatish), File metodida uchta parametrni ko'rsatamiz:

Server tomonida faylga yo'l, ichidagi narsalar tipi va kutib olgan tomon uchun fayl nomi (fayl nomi zarur emas).

```
public FileResult GetFile()
```

```

{

    // Put' k faylu

    string file_path = Server.MapPath("~/Files/PDFIcon.pdf");

    // Tip fayla - content-type

    string file_type="application/pdf";

    // Imya fayla - neobyazatel'no

    string file_name = "PDFIcon.pdf";

    return File(file_path,file_type,file_name);

}

```

Loyihadagi FilesPDFIcon.pdf fayli bor. **Server.MapPath** metodi loyihaning ichida katalogdan resursga to'liq yo'lini sozlash imkonini beradi. Absolyut yo'llarni ishlatish ham mumkin, fayl tizimining har qanday fayli murojaat qilib, masalan: *string file-path=C "S:\Book\PDFIcon.pdf"*. Agar bizlar Home/GetFile yo'li bilan murojaat qilsak, bu faylni lokal kompyuterga saqlashni tavsiya qiladi.

F:EcntentResult sinflari xuddi shunga o'xshash tarzda ishlay dilar, faqat fayl nomi joyida File metodida baytlar massivi ko'rsatiladi, qaysisiga fayl o'qib tushirildi:

```

// Baytlar massivini jo`natish

public FileResult GetBytes()

{

    string path = Server.MapPath("~/Files/PDFIcon.pdf");

}

```

```

byte[] mas = System.IO.File.ReadAllBytes();

string file_type = "application/pdf";

string file_name = "PDFIcon.pdf";

return File(mas, file_type, file_name);

}

```

Agar bizlar File Stream Result ob`yektini qaytarmoqchi bo`lsak, bunda File metodida, birinchi argument bo`lib Stream ob`yektini ishlatiladi, yuborilayotgan fayl uchun:

```

// Otppravka potoka

public FileResult GetStream()
{
    string path = Server.MapPath("~/Files/PDFIcon.pdf");

    // Ob`yekt Stream

    FileStream fs = new FileStream(path, FileMode.Open);

    string file_type = "application/pdf";

    string file_name = "PDFIcon.pdf";

    return File(fs, file_type, file_name);

}

```

HttpContext. So`rov konteksti. Cookie lar.

Kim php ishlagan bo'lsa agar, ular s – sarvar ob'yektini va o'zgaruvchan qatorini biladilar. Bular orqali so'rov haqida ma'lumot olish mumkin: brauzer haqida, IP-manzili haqida va izoh httpContext ob'yektida ASP.NET.MVC bunday harakatlarni bajarish imkonini beradi. Kontrollerda ham Controller Context ob'yektiga murojaat qilsak, bu ob'yektning Http Context xossasi xuddi shu harakatni bajarish imkonini beradi. Ammo, ular farq qiladi. Http Context ob'yekti konkret http-so'rovning ma'lumotlarini tasvirlaydi, qaysilariga dasturli ilova ishlov beradi. Controller Context esa Http - so'rovning ma'lumolarini berilgan kontrollerga qarashli tasvirlaydi.

So'rov haqida ma'lumot Request xossasida saqlanadi. **HttpContext.Request** sinf ob'yekti, Http Request Base sinfidan meros saqlaydi. Ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

- Foydalanuvchi brauzerni olish: **HttpContext.Request.Browser**
- Ba'zan faqat brauzerning o'zi kamlik qiladi, bunda foydalanuvchi agentiga murojaat qilish mumkin: **HttpContext.Request.User Agent**.
- Url-so'rovini olish: **HttpContext.Request RawUzl**.
- Foydalanuvchining IP-manzilini olish: **HttpContext. Request.UserHost Address**.
- Refererni olish: `HttpContext. Requist. UrlRefferrer=null?""` http Context.Request.URL Referrer. AbsoluteUri. Referer aniqlanmagan bo'lishi mumkin, bunda oldindan ko'ramiz u null ga teng emasmi. Masalan:

```
public string Index()
{
    string browser = HttpContext.Request.Browser.Browser;

    string user_agent = HttpContext.Request.UserAgent;

    string url = HttpContext.Request.RawUrl;
```

```

string ip = HttpContext.Request.UserHostAddress;

string referrer = HttpContext.Request.UrlReferrer == null ? "" :
HttpContext.Request.UrlReferrer.AbsoluteUri;

return "<p>Browser: " + browser+"</p><p>User-Agent:
"+user_agent+"</p><p>Url zafrosa: "+url+

"</p><p>Referer: " + referrer + "</p><p>IP-adres: "+ip+"</p>";
}

```

http Context.Requestning yana bir qator xossalari bor, ularni hujjatlardan ko`rish mumkin.

Cookielar bilan ishlash. Kuklarni olish uchun, quyidagi xossani ishlatamiz:

```
HttpContext.Request.Cookies:
```

```
string id =HttpContext.Request.Cookies["id"].Value;
```

Bu erda, agar mijoz tarafida “id” kuki urnatilgan bo`lsa, bizlar uning qiymatini olamiz.

Kukning qiymatini olishdan oldin, kuklarni o`rnatish kerak. Buning uchun string id-Http.Context.Request.Cookies [“id”] Value= “sa-4353w”.

Javobni uzatish. HttpResponse ob`yekti, httpContext, Response xossasini saqlanadi, qaysisi mijoz tomoniga ba`zi qiymatlarni uzatadi. Masalan, kuklarni. Bu xossa yordamida bizlar boshqa ob`yektlarni ham uzatishimiz mumkin.

Masalan, javobning kodirovkasini: HttpContext.Response.Charset= “iso-8859-2”;

Javobni boshqarish metodlar yordamida ham mumkin. Masalan, AddHeader metodi, javobga qo`shimcha sarlavha qo`shadi.

Bundan tashqari, mijozga so`rovning javobini uzatish uchun, kontroller harakatlariga View metodini chaqirish zarur emas. Bizlar bimalol `HttpContext.Response.Write` metodini ishlatimiz mumkin:

```
public string ContextData()
{
    HttpContext.Response.Write("<h1>Hello World</h1>");

    string user_agent = HttpContext.Request.UserAgent;

    string url = HttpContext.Request.RawUrl;

    string ip = HttpContext.Request.UserHostAddress;

    string referrer = HttpContext.Request.UrlReferrer == null ? "" :
    HttpContext.Request.UrlReferrer.AbsoluteUri;

    return "<p>User-Agent: "+user_agent+"</p><p>Url zaprosa: "+url+
        "</p><p>Referer: " + referrer + "</p><p>IP-adres: "+ip+"</p>";
}
```

yoki bunday:

```
public void ContextData()
{
    HttpContext.Response.Write("<h1>Hello World</h1>");
}
```

```
}
```

Bu erda `HttpContext.Response.Write` metodi, oqimning ichini aniq narsalar bilan tto'ldiradi, qaysisi parametr deb uzatilgan. Lekin, reallikda `Action Result` ob'yektlarni yaratadigan metodlarni ishlatish osonroq, masalan, ifodalar.

Foydalanuvchini aniqlash.

`HttpContext` ob'yekti foydalanuvchini aniqlaydi:

```
bool IsAdmin = HttpContext.User.IsInRole("admin");
```

//foydalanuvchi administrator yoki yo'qmi, aniqlaymiz.

```
bool IsAuth=HttpContext.User.Identity.IsAuthenticated;
```

//foydalanuvchi autentifikatsiyalanganmi, aniqlaymiz

`string login = HttpContext.User.Identity.Name;` *//avtorizatsiyalashgan foydalanuvchining logini.*

1.3.SQL tiliva uning imkoniyatlari. Berilganlar bazasi boshqaruv tizimi (BBBT) asoslari. SQL tili.


Kompyuter sanoatida ommaviy tarqalishi jihatidan SQL tili eng oldingi o'rinlarda turadi. Keyingi bir necha yil ichida SQL berilganlar bazasining yagona standart tili bo'lib qoldi. Hozirgi kunda SQL yuzdan ortiq BBBT (Berilganlar bazasi boshqaruv tizim) lari asosida EHM larda ishlayapti. SQL tilining xalqaro standarti rasmiy jihatdan qabul qilindi va keyinroq mukammallashtirildi. SQL tili berilganlar bazasi boshqaruv sistemasi arxitekturasining muhim a'zosi bo'lib, u Microsoft kompaniyasi dastur ishlab chiqarishining strategik yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. IBM kompaniyasining ikkinchi darajali ta'dqiqot loyihasining

bajarilishi natijasida paydo bo'lgan SQL tili hozirgi vaqtda muhim kompyuter texnologiyasi va kuchli bozor faktori sifatida keng tarqaldi.

Xo'sh, SQL nima? Nima uchun u bunchalik muhim?

U nima ish qiladi va u qanday ishlaydi? Agarda SQL — haqiqiy standart bo'lsa, nima uchun berilganlar bazasining juda ko'p versiyalari va dialektlari mavjud. SQL SERVER, Oracle, Interbase, Paradox BBBT lar bir — biridan nimasi bilan farq qiladi? SQL haqiqatan ham shaxsiy kompyuterlar va lokal tarmoq uchun shunchalik muximmi?

SQL — kompyuter berilganlar bazasida saqlanuvchi ma'lumotlarni qayta ishlash va o'qish uchun mo'ljallangan instrumentdir. SQL—bu strukturlashgan so'rovlar tilining (Structured Query Language) qisqartirilgannomlanishidir. SQL abbreviaturasi odatda "sikvel" deb o'qiladi. Ba'zi hollarda, "ESKYUEL" talaffuzi ham SQL abbreviaturasini o'qishda ishlatiladi. Nomlanishidan ko'rinib turibdiki, SQL foydalanuvchining berilganlar bazasi bilan o'zaro aloqasini tashkil etish uchun qo'llaniluvchi dasturlashtirish tilidir.



SQL xususiyatlari

Ma'lumotlar bazasi dunyosi tobora yagona bo'lib bormoqda. Bu jarayon har xil kompyuter muhitlarida faoliyat ko'rsatuvchi axborot tizimlarini yaratishda qo'llanuvchi yagona standart til yaratishni talab qildi. Standart til bir komandalar to'plamini bilgan foydalanuvchilarga ularni shaxsiy kompyuter tarmoq ishchi

stantsiyasi yoki katta EHM da ishlashlaridan qat'iy nazar ma'lumotni yaratish,izlash va uzatishga imkon beradi.

SQL (Structured Query Language, odatda "sikvel" deyiladi) ma'nosi *Tarkiblangan so'rovlar tili*. Bu relyatsion ma'lumotlar bazalarida ishlashga imkon beradigan tildir. Bu til ifodalarining xususiyati shundan iboratki ular ma'lumotlarni qayta ishlash protseduralariga emas natijalariga yo'naltirilgandir. SQL o'zi ma'lumotlar qayerda joylashgani, qanday indekslar va hatto amallarning eng effektiv ketma- ketligini qo'llash kerakligini aniqlaydi; bu detallarni ma'lumotlar bazasiga so'rovlarda ko'rsatish kerak emas.

SQL tilining o'zi IBM kompaniyasida MBBT DB2 yaratish jarayonida ishlab chiqilgan va keng ko'lamda RISC protsessorli mashitnalarda UNIX tizimlar asosida, hamda meynfreymlarda, superkompyuterlar asosida qurilgan katta hisoblash tizimlarida qo'llanilgan.

Shu bilan birga mustaqil bo'lmasdan PL/SQL, va Transact-SQL kabi ichki dasturlash tillariga inkapsulyatsiya qilinadi. 1986 yilda, ANSI (American National Standart Institute) SQL tilining rasmiy standartini ishlab chiqdi, 1992 yil bu standart kengaytirildi. Butun til 30 ga yaqin operatorlarga ega bo'lib, ba'zi versiyalarida sal ko'proq, ba'zilarida sal kamroq. Har qanday MB har xil ob'ektlarga ega, Ya'ni jadvallar, protseduralar, funktsiyalar, tasavvurlar, ketma ketliklar va hokazo.

"Mijoz-Server" texnologiyasiga ko'ra, foydalanuvchi EHM (Mijoz) lar so'rovlari maxsus ma'lumotlar serverlarida (Server) qayta ishlanadi, foydalanuvchi EHM larga faqat so'rovni qayta ishlash natijalari qaytariladi.

Tabiiyki Server bilan muloqot qilish uchun yagona til kerak va bunday til sifatida SQL tanlandi. Shuning uchun hamma zamonaviy relyatsion MBBT versiyalari (DB2, Oracle, Ingres, Informix, Sybase, Progress, Rdb) va hattoki norelyatsion MBBT versiyalari (masalan, Adabas) "Mijoz_Server" texnologiyasi va SQL tilidan foydalanadilar.

SQL tilida Ma'lumotlarni jadval ko'rinishda tasvirlashga yo'naltirilgan amallar kontseptsiyasi ko'p bo'lmagan (30 dan kam) ifodalardan iborat kompakt til yaratishga imkon berdi.

Ikki xil SQL mavjud: **Interaktiv** va **Joylashtirilgan**. Ko'p hollarda ikkala forma bir xil ishlaydi, lekin ikki xil foydalaniladi:

